QO’QON SHAHRI TARIXIDAN

Muhammadaminov Shermuhammad Zafarjon o’g’li
Qo’qon DPI Tarix Fakulteti Tarix o’qitish metodikasi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada go’zal va maftunkor Qo’qon shahri,uning tashkil topishi, to’liq tarixi, hozirgi kundagi ko’rinishi va shahrimizda o’tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivali haqida bilib olishingiz mimkin.

Kalit so’zlar: Qo’qon, Xo’qandi latif, Xudoyorxon saroyi, Qo’qon xonligi, Xalqaro hunarmandchilik festivali.

Rivoyat qilishlaricha, Boborahim Mashrab[1640-1711] hazratlari ko’pincha yerga qarab yurar ekanlar. Bir kuni shogirdlari va muxlislari hamrohligida Xo’qandga tashrif buyurdilar. Bir shahar darvozasidan kiriboq, ko’zlarini yerdan uzib, osmonga boqadilar. Shunda hamrohlari ajablanib:

- Nuqul yerga qarab yurardingiz, nechuk endi osmonga va atrofga qarayapsiz? – deb so’raydilar.

- Ko’rmayapsizmi? – deb javob beradilar Mashrab, - Xo’qandi Latifga osmondan Allohning nuri yog’ilib turibdi…

Xo’qandi latif Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy markazlaridan biri sifatida mashhur bo’lib kelgan. Garchi hozir rasman ‘‘Qo’qon’’ deb atalsa-da, manbalarda ‘‘Xo’qand’’ hamda ‘‘Xo’qandi Latif’’ shaklida qalamga olib kelingan. Shahar nomining kelib chiqishi borasida turli talqinlar aytilgan. Bu talqinlar ichida eng mo’tabari, tan olingani quyidagichadir: qadimgi turkiy tilda ‘‘Xo’ ’’ – shamol, ‘‘kand,kent’’ – shahar ma’nosini beradi, binobarin, ‘‘Xo’qand’’ shamol shahri deganidir. Shahar iqlimi tahlili natijalaridan ma’lum bo’lishicha, shaharda bir yilda o’rta hisobda 240 kun turli tezlikda shamol esib turadi. Shaharning iqlimi mo’tadil, suvi totli va pokiza, havosi yugurik, aholisi imon-e’tiqodli, odobli, xushmuomala, nozikta’b, hozirjavob, mehmondo’st, she’riyatga moyil, ko’cha va maydonlari orasta bo’lganligi tufayli unga ‘‘Latif’’ sifatini olgan yagona shahardir.

Shaharning vujudga kelishi sanasi borasida hozircha bir to’xtamga kelingani yo’q. Qadimgi Xitoy manbalarini o’rganish asosida chiqarilgan xulosaga ko’ra, shahar miloddan avvalgi II asrda ham mavjud bo’lgan. Mustaqillik yillarida aniqrog’i 2009-2011-yillarda O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Qo’qon arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qazuv ishlari asnosida shahar zamini qatlamma-qatlam o’rganildi. O’rganishlar natijasida bu yerdan sopol idishlar, uy-ro’zg’or buyumlari, qurollar va shaharning qadimgi qoldiqlari topildi. Mutaxasislar ularni tadqiq qilib, shahar taxminan miloddan avvalgi

I asrda vujudga kelgan degan xulosaga keldilar. Qadimda Farg’ona vodiysida Parkan davlati bo’lib, Qo’qon shahri bu davlat tarkibiga kirgan. Milodiy VI – VII asrlarda esa Turk xoqonligiga bo’ysungan. VIII asrning birinchi yarmida Parkan davlati arab qo’shini tomonidan zabt etilgach, Arab xalifaligi tarkibiga kiradi. ‘‘Parkan’’ atamasi arab tili talaffuziga moslanib, ‘‘Farg’ona’’ shaklini oladi. IX-XII asrlarda yashab o’tgan Sharq tarixchilari, sayyohlari va lug’atshunos olimlari o’z asarlarida Qo’qon shahrini ham qalamga olib o’tadilar. Shahrimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalaradan biri Abu Tayyib Tohir ibn Muhammad al-Mahzumiy al-Xo’qandiy XI asrning birinchi choragida tavallud topganlar. Ularning ‘‘ibn Muhammad al-Mahzumiy’’ nisbalari[ota ismlari] ota bobolarining yetuk diniy va dunyoviy bilimga ega bo’lgan allomalar bo’lganligidan dalolat beradi. Abu Tayyib – u kishining kunyalari [mavjud yoki bo’lajak farzand ismi], Tohir – ismlari. Tohir ibn Muhammad Xo’qandda savod chiqarib, otalari, ustozlari erishgan barcha ilmlarni egalladilar. Biroq bu ilmga qanoat qilmay, bilimini takomillashtirish uchun Bag’dod shahriga yo’l oladi. O’sha paytda Bag’dod shahrida Akademiya – Bayt ul-hikma [hikmat uyi, bilimlar uyi] faoliyat ko’rsatayotgan edi. U yerda mashhur kutubxonada xizmat qiladilar va o’qiydilar. Turli fanlarga doir 30 ziyod kitoblarni yozadilar. Bu asarlar ro’yxati Yoqut Hamaviyning ‘‘Mo’jam ul-udabo’’ asarida keltirilgan. Xalifa al-Muqtadi Abu Tayyib al-Xo’qandiyni qozilik lavozimiga tayinlaydi. Bu yerda uzoq vaqt davomida ham lavozimlarini bajarib, ham shogirdlar yetishtiradilar. O’z ona shaharlari Qo’qonga qaytayotganda Samarqand shahrida to’xtab o’tadilar. Hukmdor Tamg’ach Arslonxon Muhammad ularni shaharda qolib, ilm ahliga boshchilik qilishlarini so’raydi. Bu yerda ilm-fan ravnaqiga hissa qo’shgan Abu Tayyib Xo’qandiy milodiy 1107-yilda vafot etadilar. Ular Samarqand shahriga dafn qilinadi va bu marosimga shaxsan hukmdor Arslonxon Muhammad boshchilik qiladi. Qo’qon shahri VIII-XIII asrlarda Arab xalifaligi, so’ngra tohiriylar, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davlatlari tarkibida bo’ldi. 1222-yili shahar Chingizxon qo’shini tomonidan yakson qilindi. Temuriylar davriga kelib Qo’qon qayta tiklandi. XVI asr boshlarida shahar Shayboniylar davlatiga, XVII asr oxirida Ashtarxoniylar humronligi ostida bo’ladi. Buxoro xonligining zaiflashuvidan foydalangan ming urug’i yo’lboshchisi Shohruhbiy 1709-yilda poytaxti Qo’qon shahri bo’lgan Qo’qon xonligiga asos soladi. Qo’qon xonligi 1709-yildan 1876-yilgacha hukm surgan.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. - Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018. 12-19-betlar]

Qo’qon xonligi davrida jami 7 ta o’rda[saroy] qurilgan bo’lib, ulardan faqat Xudoyorxon saroyigina bizgacha yetib kelgan. Birinchi saroy Qo’qon xonlgi asoschisi Shohruhbiy tomonidan 1709-1710-yillarda shaharning Ko’k To’nli Ota mavzeyida Eskiqo’rg’on deb atalgan qadimiy qal’a o’rnida qurilgan. Shohruhbiy 1721-yilgacha, ya’ni vafotiga qadar shu saroydan davlatni boshqaradi. O’sha yili

taxtga Shohruhbiyning katta o’g’li Abdurahimbiy o’tiradi. 1723-yilda Abdurahimbiy ham o’ziga yangi saroy qurdiradi. O’rdaga [saroyga] xalq ‘‘Qal’ayi Raimbiy’’ degan nom beradi. U vafot etgach, taxtga ukasi Abdulkarimbiy o’tiradi. Abdulkarimbiy ma’lum vaqt shu o’rdada yashaydi, keyinchalik bu saroy sarbozxona[askarlar yashovchi va mashq qiluvchi joy]ga aylantiriladi. Abdulkarimbiy 1740-yilda o’ziga yangi saroy qurdiradi. Bu xonlik tarixidagi 3-saroy edi. Bu saroy ‘‘Eski O’rda [Saroy]’’ nomini oldi. Bu saroyning atrofi qal’a bilan o’rab olinadi. Bu qal’aning 5 ta darvozasi bo’lgan. Xonlik tarixida eng ko’p hukmronlik qilgan Norbo’tabiy[1763-1798] dastlab ‘‘Eski O’rda[Saroy]’’ da yashaydi. Keyinchalik, 1767-yilda Qo’qonsoyning chap sohilida o’ziga yangi saroyni qurdiradi. Bu saroy ortiqcha bezaklardan holi, oddiygina bo’lgan. Xonlik tarixidagi 5-saroy Norbo’tabiyning kichik o’g’li Amir Umarxon tomonidan 1812-yilda bunyod qilingan. Saroyning chiroyliligi va zar bilan bezatilganligi uchun xalq tilida ‘‘Zarrinsaroy’’ nomini oladi. 1842-yilda Buxoro-Qo’qon urushida bu Saroy Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan vayron etilgan. Xonlik tarixidagi 6-saroy Umarxonning o’g’li Muhammad Alixon tomonidan 1825-1827-yillarda Chorsu maydonining sharq tomonida bunyod etilgan. Xalq tilida bu saroy – ‘‘Jahon oro’’ nomini oladi. Bu saroy oldida har kuni 3-4 ming askar mashq qilgan. Bu saroy dastlabki beshta saroyga nisbatan uzoqroq saqlangan. Xonlik davridan hozirgi kungacha yetib kelgan yagona saroy bu Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. Bu Qo’qon xonligida qurilgan oxirgi 7-saroy. Bu saroy hukmdor Xudoyorxonning farmoni bilan 1865-1870-yillar oralig’ida qurib bitkazilgan. Bu saroy to’rt qismga bo’lingan: 1. Tashqi saroy. 2. O’rta saroy. 3.Ichki saroy. 4. Bog’. Hozirgi kunda faqat Ichki saroygina saqlanib qolgan bo’lib, xonalar soni 114 tani tashkil qilgan, bundan maqsad Qur’oni Karimdagi 114 ta surani ifodalash bo’lgan. Qurilgan 7 ta saroyning barchasi Qo’qon shahrida joylashgan, ammo urushlar va boshqa sabablar tufayli, faqatgina Xudoyorxon saroyigina bizgacha yetib kelgan.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 6-50-betlar] Qo’qon xonligida hukmdorlar ham ilm-fanga homiylik qilganlar. Ular orasida Qo’qon adabiy muhitiga asos solgan Amir Umarxon [hukmdorligi 1810-1822-yillar] bor edi. Umarxon – Amiriy taxallusida she’rlar yozgan. U o’z asarlarini o’zbek va fors tillarida yozgan. Amiriyning she’rlari devonga jamlangan. Bu devon 1882-yilda Istanbulda, 1902-yilda Toshkentda bosilgan. Umarxon buyrug’i bilan fors tilidagi kitoblar o’zbek tiliga tarjima qilinadi. Masjid va madrasalar quriladi. Bu vaqtda Qo’qon shahrida 100 ga yaqin shoirlar to’plangan edi. Umarxon rafiqasi Mohlaroyim[1792, Andijon. – 1842, Qo’qon] – o’zbek shoirasi, ma’rifatparvari. ‘‘Komila’’, ‘‘Maknuna’’ va ‘‘Nodira’’ taxalluslarida she’rlar yozgan. Otasi Rahmonqulbiy - Andijon hokimi bo’lgan. 1808-yilda Mohlaroyim Umarxonga turmushga chiqqan. 1822-yilda Umarxon vafot etgach, Mohlaroyimning 14 yoshli o’g’li Muhammad Alixon taxtga o’tiradi. Muhammad

Alixon ham she’rlar yozgan. Mohlaroyim davlat ishlarida qatnashib, madaniyat va san’atni rivojlantiradi. Madrasalar va yangi binolar qurilishiga homiylik qiladi. Bir qancha kitoblarni o’zbek tiliga tarjima qildirtiradi. U yaxshi ishlagan kotiblarga va shoirlarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni ijodini rag’batlantiradi. Mohlaroyim she’riyatining asosini lirika tashkil qiladi. U muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. Shoira go’zallik va sadoqat timsoli bo’lgan Sharq xotin-qizlarini kuylaydi. Malikani 1842-yilda Qo’qon shahrini bosib olgan Buxoro amiri Nasrullo farzandlari bilan birgalikda qatl ettiradi. Mohlaroyim qatorida o’sha davrning mashhur shoiralari Uvaysiy [1771-1845], Mahzuna[XIX asr], Dilshodi Barno[1801-1905] Qo’qon adabiy muhitida ijod qilishgan. Bundan tashqari Qo’qon adabiy muhitida ijod qilgan Maxmur[asl ismi Mahmud, XVIII asr oxiri – 1844], Muqimiy [1850-1903], Nizomiy Xo’qandiy[XVII asr oxiri – XVIII asr boshi] va Nodir[1743,Qo’qon – vafot etgan yili noma’lum] kabi shoirlarni ham ko’rishimiz mumkin. [Bobobekov Haydarbek Nazirbekovich. – Qo’qon tarixi. – T:‘‘FAN’’. 1996. 149-171-betlar]

Masjid qurish savob amal hisoblanib, xonlik davrida Qo’qonda hukmdorlar, sarkardalar, boylar, savdogarlar tomonidan ko’plab masjid bunyod etildi. Masjidlar soni haqida manbalarda tafovut katta. Manbalarda masjidlar soni 240, 360, 400, 420 kabi raqamlar keltirilgan. Qo’qon shahri uchun bu raqamlar ozlik qiladi. Biz o’zimizning 40 yillik tadqiqotimiz asnosida 600 dan ziyod masjid bo’lganligini aniqladik. Bizning bu da’vomizga quyidagi asos bor: tadqiqotlarimiz asnosida XIX asr oxirida Qo’qonda 360 dan ziyod mahalla bo’lganligini aniqladik. O’sha davrda har bir mahallada kamida ikkitadan, ba’zilarida esa uch-to’rtta masjid bor edi. Masjid barpo etilayotganda azon ovozi yetib borish masofasi hisobga olingan, azon ovozi yetib bormaydigan joyga boshqa masjid qurilgan. Rossiya mustamlakachiligi davrida masjidlarning hammasi yopilib, ombor, ustaxona, savdo do’konlariga va boshqa muassasalarga aylantirilgan. Hozirgi kunda shaharda bor yo’g’i 18 ta masjid saqlanib qolgan. 1876-yilda Qo’qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olinadi. Xonlik hududi yangi tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligiga kiritildi. Farg’ona vodiysi negizida mazkur general-gubernatorlikning Farg’ona viloyati ta’sis etildi. Qo’qon shahri 1878-yilgacha mazkur viloyatning markazi bo’ladi. Keyinchalik markaz etib yangi qurilgan Yangi Marg’ilon shahri belgilanadi. Qo’qon shahrida ko’plab ishlab chiqarish korxonalari, banklar, birjalar, iqtisodiy va savdo uyushmalari ochildi. XX asr boshlariga kelib Qo’qon savdo ko’lami bo’yicha Turkiston o’lkasida 1-o’ringa, Rossiyaning Osiyodagi shaharlari ichida 4-o’ringa chiqib oladi. 1917-yilda Rossiyada bolsheviklar tomonidan o’tkazilgan Oktyabr to’ntarishidan keyin, Qo’qon shahrida mustaqil davlat Turkiston Muxtoriyati hukumati[ko’pgina manbalarda ‘‘Qo’qon Muxtoriyati’’ tarzida ham keltiriladi.] tashkil topdi. Ammo bu hukumat 72 kun

yashaydi, xolos.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018. 20-41-betlar.]

Manbalarda keltirilishicha, 1918-yilning 13-fevral kuniyoq Qo’qon shahri hamma tomondan qizil askarlar o’rab olishadi va shaharni o’qqa tutishadi. Qizil askarlarga qo’shimcha kuchlar Toshkent, Samarqand, Farg’ona shaharlaridan yordamga keladi. Albatta, Muxtoriyatni himoya qilish uchun atrofdagi shahar va qishloqlardan ham odamlar kelishdi, ammo ular tayoq, pichoq va bolta bilan qurollangan bo’lib, yaxshi qurollangan qizil askarlarga qarshi ojiz edi. Bu paytda Qo’qondagi Muxtoriyat qo’shinlari soni 2000 kishini tashkil qilgan, ularga yordamga kelgan 10000 qurolsiz tinch aholi bir necha kun davomida bolsheviklar hujumini qaytarishdi. Muxtoriyat qo’shinlari boshlig’i Kichik Ergash[1885-1918] qizil askarlarga qarshi mardonovor jang qiladi. 19-fevralda qizil askarlarga yordamga Y.Perfilyev boshchiligida piyoda, otliq, artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo’qonga kela boshladi. 1918-yil 19-fevralda Qo’qon shahridagi Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumi natijasida ag’darib tashlandi. Shahar uch kun davomida ya’ni 19-21-fevralda yong’in ichida qoldi va qizil askarlar tomonidan talandi. Faqat Qo’qon shahrining o’zida 10000 nafar tinch aholi o’ldirildi. Shaharning to’rtdan uch qismi butunlay vayronaga aylandi. Shundan so’ng, 1918-yilning bahoridan avval Farg’ona vodiysida, so’ngra butun Turkistonda milliy-ozodlik harakati boshlandi. Bu harakat 1935-yilga qadar davom etdi. Janglarda 1.200000 turkistonliklar o’lgan, yarador bo’lgan va asirga tushgan. Qizil askarlar bu janglarda 400000 askar va ofitseridan ajralgan.[Rajabov Q, Haydarov M. – Turkiston tarixi. – T:‘‘Universitet’’. 2002. 29-31, 162-betlar]

Qo’qon shahrida savdo-sanoat ham yaxshi rivojlangan. Qo’qonda tashkil topgan firma va savdo uylari shaharda 113 ta firma do’koni ochib, tovarlar bilan savdo qilganlar. 1907-yilga kelib shaharda savdo-sanoat furmalarining soni 42 ta bo’lgan. 1912-yili esa Qo’qon-Namangan temir yo’li qurib bitkaziladi. Qo’qonda savdo-sanoatning taraqqiy topishi shu sohaga zarur bo’lgan mutaxassislarga ehtiyoj tug’diradi. Shu tufayli XX asr boshlarida shaharda tijorat bilim yurti ochildi. 1912-yilda Qo’qon shahrida Markaziy Osiyodagi birinchi futbol jamoasi tashkil etildi. Shahardagi futbol jamiyati ‘‘Farg’ona’’ nomini oldi. Hozirgi kunda futbol jamoasi ‘‘Qo’qon – 1912’’ nomi bilan o’ynamoqda. 1921-yilga kelib shahardagi kasalxonalar soni 6 ta yetdi. Aholini emlash va ularga xizmat ko’rsatish yanada yaxshilandi. Sovet hokimiyati davrida shaharning nufuzi tushirilganiga qaramay, u o’z ahamiyatini yo’qotmadi. 1991-yil 31-avgustda O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov yurtimiz mustaqilligini tantanali ravishda e’lon qildi. Mustaqillik yillarida Qo’qon shahrida katta obodonchilik ishlari olib borildi. Prezident Islom Karimov 2009-yil 16-oktyabr kuni shahrimizga tashrif buyurib, olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi va shaharni yanada rivojlantirish borasida alohida qaror qabul

qilindi. Shahardagi tarixiy obidalar: Norbo’tabiy madrasasi, Jome’ majmuasi, Xudoyorxon saroyi, Qo’qon xonlari daxmasi qaytadan ta’mirlandi.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 168-176-betlar.]

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzoyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi 3991-sonli qarori asosida Qo’qon shahrida har 2 yilda ,,Xalqaro hunarmandchilik festivali” o’tkaziladigan bo’ldi. [lex.uz] Xalqaro hay’at tomonidan ko’rik-tanlov ishtirokchilarining mahsulotlari ko’rgazmasi va mahorat darslari 5 ta nominatsiya bo’yicha baholanadigan bo’ldi: - ‘‘Eng yaxshi hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 15000 AQSH dollari. - ‘‘Eng yosh hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 10000 AQSH dollari. - ‘‘Eng yaxshi hunarmandchilik maktabi ustasi’’ nominatsiyasi bo’yicha - 10000 AQSH dollari.

-‘‘Qadimiy sulola davomchisi’’ nominatsiyasi bo’yicha – 5000 AQSH dollari.

-‘‘Qadimiy hunarmandchilik turini tiklagan hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 5000 AQSH dollari. [uzreport.news]

2019-yilning 10-15-sentyabr kunlari Qo’qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivali bo’lib o’tdi. Bu festivalga qiziqishi bo’lganlar handicrafters.uz sayti orqali ro’yxatdan o’tishi mumkin. 5 kun davom etgan mazkur festivalga 80 ga mamlakatdan 180 nafar saralangan hunarmand ishtirok etdi. Ularning festival bilan bog’liq xarajatlari qo’mita tomonidan qoplandi. Respublikamiz bo’yicha 1000 ga yaqin hunarmand ham festival ishtirok etdi. Festival tashkiliy ishlari Xalqaro hunarmandlar kengashi [World Craft Council] bilan hamkorlikda olib borildi.[kun.uz] Jahon Hunarmandlar Kengashi [WCC] ga 2019-yilda Qo’qon shahridan ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ maqomini olishga ariza yuborilgan edi. Hay’at a’zolarining baholash hisobotlari Jahon Hunarmandlar Kengashining Ijroiya kengashi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlangach, Qo’qon shahrini ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ deb belgilashga qaror qilindi. Xalqaro Hunarmandlar festivali o’tkazilayotgan Xudoyorxon saroyi maydonida Qo’qon shahriga Jahon hunarmandlar kengashining yog’och o’ymakorligi bo’yicha ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ maqomini beruvchi sertifikat Qo’qon shahar hokimi Ma’rufjon Usmonovga Hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo’yicha Prezidenti Gada Kaddumi taqdim etdi. [xs.uz]

Birgina tarixiy ma’lumotlarning va hujjatlar tahlili shuni ko’rsatadiki, shaharda XIX asrda ishlab chiqarish bilan bog’liq 250 dan ortiq kasb-hunar turi mavjud bo’lgan. 40 dan ziyod mahalla kasb-hunar nomi bilan atalgan, zero hunarmandlarning aksariyati alohida mahallalarda istiqomat qilganlar. Hunarmandchilik taraqqiy etib, uning ayrim turlari san’at turi darajasigacha ko’tarilgan. Ayniqsa yog’och o’ymokorligi Qo’qon shahrida rivojlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida milodiy IV-V asrlarga oid yog’och buyumlar topilgan.[Muhammad Yahyoxon

Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 177-178-betlar.] Aynan shu omillar Qo’qon shahrining hunarmandlar shahri sifatida rivoj topishida katta ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda Qo’qon shahrida joylashgan 90 ta sanoat korxonalariga 249 million 406 ming AQSH dollari miqdorida, 47 ta xizmat ko’rsatish sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlariga 47 million 699 ming AQSH dollari miqdorida, qishloq xo’jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan 4 ta korxonaga 1 million 145 ming AQSH dollari miqdorida investisiya kiritilishi rejalashtirilgan. [qoqon.uz]

Qo’qon shahrining aholisi yil boshidan beri 2,7 ming kishiga ko’paydi va 2020-yilning 1-oktyabr holatiga ko’ra 255.4 ming kishini tashkil qildi yoki 1.5 foizga ko’paydi. Bu haqda Qo’qon shahar statistika bo’limi xabar bermoqda. Yanvar-oktyabr oylarida Qo’qon shahrida faoliyat ko’rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 2 trln 596,8 mlrd so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishildi va o’tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 foizni tashkil etdi. [kun.uz] Hozirgi kunda Qo’qon shahrida 65 ta mahalla va ularga qarashli 535 ta ko’cha mavjud.[Muhammad Yahyoxon Dadaboyev. – Xo’qandi latif mahallalari va ko’chalarining nomlanish tarixi. – T:‘‘Farg’ona’’. 2007. 4-bet.]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018.

2.Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016.

3.Bobobekov Haydarbek Nazirbekovich. – Qo’qon tarixi. – T:‘‘FAN’’. 1996.

4.Rajabov Q, Haydarov M. – Turkiston tarixi. – T:‘‘Universitet’’. 2002.b

5.Muhammad Yahyoxon Dadaboyev. – Xo’qandi latif mahalalari va ko’chalarining nomlanish tarixi. – T:‘‘Farg’ona’’. 2007.

6. kun.uz

7. lex.uz

8. uzreport.news

9. xs.uz

10. qoqon.uz